



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARNING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	



O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TO‘LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI

**A.A. Akbarov**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

**X.R. Aliyev**

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston to‘lov tizimlarining 1991–2025-yillar davomida sodir bo‘lgan bosqichma-bosqich evolyutsiyasini har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda to‘lov tizimining tarixiy shakllanishi besh asosiy rivojlanish bosqichi orqali yoritiladi: elektronlashtirishning boshlanishi, markazlashgan kliring mexanizmlarining joriy etilishi, telekommunikatsiya va axborot xavfsizligi infratuzilmasining kuchaytirilishi, sun‘iy intellektni sohada qo‘llanilishi, milliy protsessing markazlari va bank kartalari tizimining kengayishi hamda 2019-yildan keyingi innovatsion moliyaviy texnologiyalar davri. Mazkur bosqichlarning har biri O‘zbekiston moliya tizimi barqarorligi va iqtisodiy faolligining oshishida muhim omil sifatida tahlil qilinadi.

Maqolada 2020–2025-yillar oralig‘ida litsenziya olgan 44 ta to‘lov tashkilotining shakllanishi, ularning bozor segmentlari bo‘yicha taqsimlanishi, raqobat muhiti va raqamli to‘lov xizmatlarining kengayish dinamikasi grafik va diagrammalar asosida batafsil tahlil etilgan. Raqamli to‘lovlarning ommalashuvi, QR-kodli tranzaksiyalar, real vaqt rejimidagi tezkor to‘lovlar tizimi (T2T)ning qo‘llanilishi hamda moliyaviy texnologiya ekotizimining jadal rivoji mamlakat iqtisodiyotiga ko‘rsatgan ta‘siri ilmiy asoslar bilan yoritilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2025-yil kuni “O‘zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-359-son li qarorining to‘lov tizimlarini 2026–2030-yillarda modernizatsiya qilishga qaratilgan strategik vazifalari, jumladan Open Banking, CBDC, barqaror tokenlar va universal QR-standartlarni joriy etishning istiqboldagi ahamiyati baholangan. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda to‘lov tizimlarining raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: to‘lov tizimi, moliyaviy texnologiya, raqamli iqtisodiyot, kliring, protsessing markazi, elektron to‘lovlar, T2T, QR-to‘lovlar, Open Banking, tokenlashuv, moliyaviy inklyuziya.



Abstract. This article is devoted to a comprehensive study of the gradual evolution of Uzbekistan's payment systems during 1991–2025. The study covers the historical formation of the payment system through five main stages of development: the beginning of electronization, the introduction of centralized clearing mechanisms, the strengthening of telecommunications and information security infrastructure, the application of artificial intelligence in the industry, the expansion of national processing centers and the bank card system, and the era of innovative financial technologies after 2019. Each of these stages is analyzed as an important factor in the stability and economic activity of the financial system of Uzbekistan. The article analyzes in detail the formation of 44 payment organizations that received licenses in the period 2020–2025, their distribution by market segments, the competitive environment, and the dynamics of the expansion of digital payment services based on graphs and diagrams. The impact of the popularization of digital payments, QR-code transactions, the use of real-time instant payment systems (T2T), and the rapid development of the financial technology ecosystem on the country's economy is scientifically substantiated. Also, the strategic objectives of the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-359 dated November 27, 2025 “On measures for the further development of the financial technology sector in Uzbekistan” aimed at modernizing payment systems in 2026–2030, including the future significance of the introduction of Open Banking, CBDC, stable tokens, and universal QR standards, were assessed. The results of the study show that the process of digital transformation of payment systems in Uzbekistan has significantly increased economic efficiency.

Key words: payment system, financial technology, digital economy, clearing, processing center, electronic payments, T2T, QR-payments, Open Banking, tokenization, financial inclusion.

Аннотация. Данная статья посвящена всестороннему изучению постепенной эволюции платежных систем Узбекистана в период 1991–2025 годов. Исследование охватывает историческое формирование платежной системы через пять основных этапов развития: начало электронизации, внедрение централизованных клиринговых механизмов, укрепление телекоммуникационной инфраструктуры и информационной безопасности, применение искусственного интеллекта в отрасли, расширение национальных процессинговых центров и системы банковских карт, а также эра инновационных финансовых технологий после 2019 года. Каждый из этих этапов анализируется как важный фактор стабильности и экономической активности финансовой системы Узбекистана. В статье подробно анализируется формирование 44 платежных организаций, получивших лицензии в период 2020–2025 годов, их распределение по сегментам рынка, конкурентная среда и динамика развития цифровых платежных услуг на основе графиков и диаграмм. Научно обосновано влияние популяризации цифровых платежей, транзакций с QR-кодами, использования систем мгновенных платежей в реальном времени (T2T) и быстрого развития экосистемы финансовых технологий на экономику страны. Также были оценены стратегические цели Постановления Президента Республики Узбекистан № ПК-359 от 27 ноября 2025 года «О мерах по дальнейшему развитию сектора финансовых технологий в Узбекистане», направленные на модернизацию платежных систем в 2026–2030 годах, включая будущую значимость внедрения Open Banking, цифровых валют центральных банков (CBDC), стейблкоинов и универсальных стандартов QR-кодов. Результаты исследования показывают, что процесс цифровой трансформации платежных систем в Узбекистане значительно повысил экономическую эффективность.

Ключевые слова: платежная система, финансовые технологии, цифровая экономика, клиринг, процессинговый центр, электронные платежи, T2T, QR-платежи, Open Banking, токенизация, финансовая инклюзия.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida raqamli to‘lov infratuzilmasining modernizatsiyasi, kengayishi va aholi hamda biznes subyektlari o‘rtasida tezkor, xavfsiz va qulay to‘lov xizmatlarining ommalashuvidir. To‘lov tizimlari iqtisodiyotda pul aylanish tezligini belgilovchi, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlovchi va makroiqtisodiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlovchi strategik infratuzilma hisoblanadi. Shu bois, to‘lov tizimlarining zamonaviy talablarga muvofiq ishlashi davlat iqtisodiy siyosati, moliyaviy sektor islohoti va raqamli transformatsiyaning markazida turadi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida to‘lov tizimini tubdan yangilash bo‘yicha ketma-ket islohotlarni amalga oshirib keldi. Dastlab elektronlashtirishning boshlanishi, keyinchalik markazlashgan kliring tizimining joriy etilishi, zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalarining tatbiqu, milliy protsessing markazlari Uzcard va Humoning paydo bo‘lishi va 2019-yildan boshlab esa moliyaviy texnologiya ekotizimining shakllanishi to‘lov infratuzilmasini tubdan yangilagan jarayonlar qatoriga kiradi. Bu evolyutsion jarayon mamlakatning raqamli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tishini ta‘minladi.

Alohida ta‘kidlash joizki, 2020–2025-yillar to‘lov xizmatlari bozori uchun jadal rivojlanish davri bo‘ldi. Ushbu yillarda to‘lov tashkilotlari soni 7 baravar oshib, aholi tomonidan naqd pulsiz to‘lovlarga bo‘lgan talab keskin kuchaydi. QR-to‘lovlar, tezkor to‘lov tizimi (T2T), elektron hamyonlar, onlayn banking, transport to‘lov tizimlari kabi xizmatlarning ommalashuvi raqamli to‘lov infratuzilmasining sifat va miqyos jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, 2025-yil 27-noyabrdagi PQ-359-son Prezident qarori to‘lov tizimlarining 2026–2030-yillardagi strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlarining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish masalalari bugungi kunda mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Mazkur izlanishlarda raqamli ekotizimning poydevori hisoblangan elektron to'lov infratuzilmasi nafaqat texnik vosita, balki iqtisodiy munosabatlarni transformatsiya qiluvchi muhim omil sifatida tahlil qilingan. Xususan, milliy to'lov tizimlarining evolyutsion rivojlanishi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni va institutsional mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator fundamental yondashuvlar ilgari surilgan.

Abdullayev, A. J. "Raqamli iqtisodiyot" darsligida fundamental darslikda O'zbekistonda raqamli ekotizimning poydevori, jumladan, elektron to'lov tizimlarining nazariy-uslubiy asoslari tizimli ravishda yoritilgan. Muallif raqamli to'lovlarni shunchaki texnik jarayon emas, balki subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yangi sifat bosqichi sifatida tahlil qiladi. Kitobda milliy to'lov infratuzilmasining shakllanish bosqichlari va davlatning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi maqsadlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Berdiyeva, O. S. o'z ishida mamlakatimiz to'lov bozorining evolyutsion rivojlanishini tarixiy va mantiqiy izchillikda tahlil qiladi. Dissertatsiyada chakana to'lovlari infratuzilmasini modernizatsiya qilish, plastik kartalardan mobil to'lov tizimlariga o'tish dinamikasi hamda banklararo raqobat muhitining raqamlashtirishga ta'siri tadqiq etilgan. Muallif tomonidan taklif etilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirish modellari bozor tahlili uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Vaxabov, A. V. va boshqalar raqamli to'lov infratuzilmasining shakllanishi moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Mualliflar an'anaviy bank xizmatlarining FinTech (moliyaviy texnologiyalar) bilan integratsiyalashuvi jarayonlarini, elektron pullar muomalasi va kripto-aktivlarning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yoritganlar. To'lov tizimlaridagi xavf-xatarlarni boshqarish va xavfsizlik infratuzilmasini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kurpayanidi, K. A. o'z tadqiqotlarida raqamli to'lovlari rivojlanishining institutsional jihatlariga urg'u beradi. Maqolada O'zbekiston to'lov bozorida "Humo" va "Uzcard" kabi yirik infratuzilma subyektlarining faoliyati, ularning bozor dinamikasidagi o'rni va davlat-xususiy sheriklik tamoyillarining joriy etilishi tahlil qilingan. Raqamli platformalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha mualliflik yondashuvi bayon etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mualliflar tomonidan ilmiy abstraksionalash, qiyosiy tahlil, monografik kuzatuv, induksiya, deduksiya, modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda shakllanayotgan raqamli to'lov infratuzilmasi nafaqat texnik va texnologik yangilanishlar bilan, balki ilmiy-nazariy asoslar, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, platforma iqtisodiyoti va tarmoq ta'siri kabi konseptlar bilan ham chambarchas bog'liq. Shu sababli, infratuzilmaning rivojlanish dinamikasini o'rganish nafaqat amaliy, balki ilmiy ahamiyatga ham egadir.

Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli to'lov infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, 2020–2025-yillardagi bozor dinamikasi, moliyaviy texnologiya xizmatlarining tarqalishi, iqtisodiy samaradorlik omillari hamda PQ-359 qarori doirasidagi kelajak istiqbollari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari nafaqat to'lov tizimining hozirgi holatini yoritadi, balki uning uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda raqamli to'lov infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanish dinamikasini kompleks o'rganish, uning tarixiy bosqichlari, bozor ko'rsatkichlari, fintech innovatsiyalarining ta'siri hamda iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, to'lov tizimlari rivojining institutsional va texnologik omillarini baholash, 2026–2030-yillarga mo'ljallangan strategik yo'nalishlarning ilmiy asoslangan modelini shakllantirish ham ushbu tadqiqotning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-amaliy vazifalar amalga oshiriladi:

1991–2025-yillarda O'zbekiston to'lov tizimlarining shakllanish bosqichlarini tarixiy manbalar asosida tizimli o'rganish;

to'lov infratuzilmasining modernizatsiyasiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, texnologik va institutsional omillarni tahlil qilish;

2020–2025-yillarda to'lov xizmatlari bozorining rivojlanish dinamikasini statistik ma'lumotlar asosida baholash;



moliyaviy texnologiya xizmatlari (QR-to'lovlar, T2T, elektron hamyonlar, mobil to'lovlar) ning aholi va biznes sektoriga ta'sirini aniqlash;

raqamli to'lovlar samaradorligini tranzaksiya xarajatlari, pul aylanish tezligi, moliyaviy inklyuziya kabi ilmiy ko'rsatkichlar orqali baholash;

O'zbekiston to'lov tizimini xalqaro standartlar (OECD, BIS, IMF) bilan taqqoslash, moslik va farqlarni aniqlash;

PQ-359 qarorining to'lov tizimlari rivojiga kutilayotgan ta'sirini nazariy asoslar bilan yoritish; olingan natijalarga asoslanib, raqamli to'lov infratuzilmasini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

To'lov tizimlarining tarixiy rivoshlanishi. O'zbekiston to'lov tizimlari 1991–2025-yillar davomida shakllanishi va rivojlanishi bir necha bosqichli, uzluksiz transformatsion jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon davrlararo uzviy bog'liqlikka, iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlariga, texnologik imkoniyatlarning kengayishiga va jahon tajribasining milliy sharoitga moslashuviga asoslangan. Quyida har bir bosqich o'zining asosiy xususiyatlari, amalga oshirilgan islohotlar va iqtisodiy ahamiyati bilan batafsil yoritiladi.

1-bosqich. Elektronlashtirishning boshlanish davri (1991–1994-yillvr). O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda to'lov tizimi amalda qog'oz hujjatlarga asoslangan bo'lib, banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar qo'lda yuritilar, ma'lumotlar pochta orqali yetkazilar edi. Bu esa iqtisodiy faoliyatda jiddiy sekinlikka sabab bo'lib, to'lovlarning kechikishi tadbirkorlik muhitining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

1991–1994-yillar mobaynida to'lov tizimini elektronlashtirish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlandi. Jumladan, tijorat banklarida kompyuterlashtirish jarayonlari boshlandi; elektron ma'lumot almashish uchun dastlabki dasturiy ta'minot ishlab chiqildi; qo'lda yuritiladigan hisob-kitoblarni qisqartirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi; davlat moliya muassasalarida elektron hujjat aylanishiga o'tish bo'yicha dastlabki loyihalar ishga tushirildi.

Mazkur bosqichning eng muhim jihati shundaki, u keyingi texnik modernizatsiya va huquqiy islohotlar uchun zarur bo'lgan poydevorni yaratdi. Elektronlashtirishning ilk davri to'lov tizimini markazlashtirish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish uchun muhim tayanch bo'ldi.

2-bosqich. Markazlashgan kliring tizimining joriy etilishi (1995–1997-yillar). 1995–1997-yillar O'zbekiston to'lov tizimi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda mamlakatda markazlashgan to'lov infratuzilmasini yaratishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirildi.

Ushbu bosqich doirasida: yagona elektron kliring tizimi yo'lga qo'yildi; banklararo hisob-kitoblar markazlashtirildi; elektron to'lov hujjatlari uchun yagona standartlar ishlab chiqildi; hududiy hisob-kitob markazlari faoliyati avtomatlashtirildi.

Islohotlar natijasida ilgari 3–5 kun davom etgan banklararo to'lovlar muddati 15–20 daqiqagacha qisqardi. Bu esa iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshirdi, korxonalar likvidligini yaxshiladi va moliyaviy operatsiyalar shaffofligini ta'minladi.

Ikkinchi bosqich milliy to'lov tizimining markazlashuv jarayonida hal qiluvchi qadam bo'lib, mamlakatni to'lovlar bo'yicha xalqaro amaliyotlarga yaqinlashtirdi.

3-bosqich. Telekommunikatsiya infratuzilmasi va axborot xavfsizligining mustahkamlanishi (1998–2003-yillar). Uchinchi bosqichda to'lov tizimlarining texnik poydevorini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylandi. Banklar orqali o'tayotgan ma'lumotlar hajmi ortib borgani sari, milliy telekommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarurati paydo bo'ldi.

1998–2003-yillar mobaynida banklararo optik tolali aloqa kanallari joriy etildi; kriptografik himoya va elektron imzo texnologiyalari qo'llanila boshlandi; to'lov tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlovchi zaxira kanallari tashkil etildi; monitoring, xavf tahlili va real vaqt nazorati tizimlari yo'lga qo'yildi.

Ushbu islohotlar to'lov tizimining xavfsizligi va ishonchligini yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda banklar o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi nafaqat tezlashdi, balki maxfiylik va yaxlitlik tamoyillariga qat'iy rioya etuvchi tizimga aylandi.

Bu bosqich kelgusida Uzcard va Humo kabi yirik to'lov platformalarini yaratish uchun zarur texnik bazani shakllantirdi.

4-bosqich. Bank kartalari tizimi va protsessing markazlarining shakllanishi (2002–2019-yillar). 2002–2019-yillarda O'zbekiston to'lov tizimining eng keng ko'lamli va davomli modernizatsiya bosqichidir. Bu davrda mamlakat to'liq bank kartalariga asoslangan to'lov tizimiga o'ta boshladi.

Asosiy yo'nalishlar quyidagilar bo'ldi: Uzcard milliy to'lov tizimi ishga tushdi; protsessing markazi faoliyat boshladi; bank kartalari soni keskin oshdi; terminallar va bankomatlar tarmog'i kengaydi; IATT tizimi orqali davlat to'lovlarining markazlashuvi ta'minlandi;

Humo tizimi 2019-yilda tashkil etildi va Uzcard bilan integratsiya bosqichiga o'tdi.

Ushbu davrda raqamli to'lovlar nafaqat moliyaviy institutlar, balki kundalik hayotda ham asosiy to'lov vositasiga aylandi. To'lov tizimlari real sektor bilan integratsiyalashdi va iqtisodiy muomalada naqd pulsiz to'lovlar ulushi oshdi.



5-bosqich. Moliyaviy texnologiya transformatsiyasi va innovatsion to'lov xizmatlari (2019–2025-yillar). So'nggi bosqichda O'zbekiston to'lov tizimi uchun tub burilish davridir. 2019-yilda qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RB-578-sonli Qonun moliyaviy texnologiya kompaniyalar, to'lov tashkilotlari va elektron pul operatorlarining huquqiy maqomini belgilab, moliyaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga asos yaratdi.

2019–2025-yillar oralig'ida: Tezkor to'lovlar tizimi (T2T) 24/7 rejimda ishga tushirildi; QR-to'lovlar ommalashdi; mobil to'lovlar asosiy to'lov kanali darajasiga ko'tarildi; elektron hamyonlar keng qo'llanila boshlandi; 44 ta to'lov tashkiloti faoliyat boshladi; moliyaviy texnologiya ekotizimi shakllandi.


Mazkur bosqichni belgilovchi asosiy siyosiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2025-yildag PQ-359-sonli qarori bo'lib, u 2026–2030-yillar uchun to'lov tizimlari strategiyasini aniqlab berdi. Qarorda quyidagi yo'nalishlar belgilandi: Open Banking konsepsiyasini to'liq joriy etish; Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC)ni sinovdan o'tkazish; barqaror tokenlar mexanizmini yaratish; universal QR kod standarti; moliyaviy texnologiya startaplarni qo'llab-quvvatlash va regtech yechimlarini rivojlantirish.

Ushbu bosqich O'zbekistonni to'liq raqamli, yuqori tezlikda ishlovchi, xavfsiz va innovatsion to'lov ekotizimiga aylantirdi. Mamlakat moliya sektori uchun bu davr nafaqat texnik modernizatsiya, balki iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga o'tishdagi muhim tarixiy bosqich bo'ldi.

2020–2025-yillarda to'lov tashkilotlari bozorining tahlili. 2020–2025-yillar O'zbekiston to'lov xizmatlari bozori uchun tarixiy jihatdan eng jadal rivojlangan davr bo'ldi. Mazkur besh yillikda Markaziy bank tomonidan jami 44 ta to'lov tashkilotiga litsenziya berildi va bozor to'liq raqobatga asoslangan yangi bosqichga o'tdi. Moliyaviy texnologiya texnologiyalarining kirib kelishi, mobil ilovalar va QR-to'lovlarning kengayishi, savdo va xizmat ko'rsatish sohasining raqamlashtirilishi bozor hajmini keskin oshirdi. Ushbu bo'limda to'lov tashkilotlari soni, bozor segmentlari tuzilishi, iste'molchilar faolligi va xizmatlar diversifikatsiyasi bo'yicha chuqur ilmiy-amaliy tahlil taqdim etiladi.

To'lov tashkilotlari sonining yillik o'sish dinamikasi (2020–2025 yillar). 2020–2025-yillarda to'lov tashkilotlari sonining o'sishi 1-grafikda aks etgan. Unga ko'ra quyidagilarni tahlil qilish mumkin: 2020-yilda mazkur bozor endigina shakllanayotgan bo'lib, atigi 6 ta tashkilot faoliyat yuritgan; 2022-yilga kelib son 13 taga yetdi va ikki barobar oshgan. Eng faol rivojlanish yili — 2022–2023, bunda raqobat kuchaydi. 2024-yilda atigi 2 ta yangi tashkilot qo'shildi, ya'ni bozor to'yinish bosqichiga yaqinlashdi.

Bu o'sish moliyaviy texnologiya infratuzilmasining kengayishini va tezkor innovatsiyalar kirib kelayotganini ko'rsatadi (1-rasm).




1-rasm. 2020–2025-yillarda to'lov tashkilotlari sonining o'sishi



Bozor segmentlarining tarkibiy tahlili (2025-yil). To'lov xizmatlari bozorida o'yinchilar faqat to'lov tashkilotlariga emas, balki ular bir nechta segmentlarga bo'linadi. Quyidagi piye-chart ushbu segmentlashuvni ifodalaydi:


Segmentlar ulushi quyidagicha: Yirik operatorlar (Click, Payme, OSON, Humans, Freedom Pay) – ~70%; Transport to'lov tizimlari (ATTO, bus QR) – ~10%; E-commerce to'lov aggregatori – ~8%; Bank-servis integratorlari – ~7%; Raqamli nasiya va mikromoliyaviy texnologiya loyihalar – ~5% (2-grafik).

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib quyidagicha ilmiy xulosa qilish mumkin: Bozorning yuqori konsentratsiyasi shuni ko'rsatadiki, yirik o'yinchilar raqobatning asosiy drayveri hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik kompaniyalar innovatsiya bo'yicha kuchli rol o'ynaydi (2-rasm).



2-rasm. Segmentlar ulushi

Moliyaviy texnologiya xizmatlarining kengayish ko'rsatkichlari. Mazkur yillarda aholi orasida naqd pulsiz to'lovlar madaniyati sezilarli darajada o'sdi. Quyida keltilgan 3-rasm moliyaviy texnologiya xizmatlarining kengayishi tasvirlangan (3-rasm).



3-grafik. Moliyaviy texnologiya xizmatlarining kengayishi



Asosiy o'sish yo'nalishlari quyidagicha: QR-to'lovlar ulushi 2020-yildagi ~3% dan 2025-yilda ~35% ga ko'tarildi; Mobil ilovalar orqali tranzaksiyalar soni 5 barobar oshdi; T2T tizimi orqali 24/7 pul o'tkazmalar soni har yili 40–60% ga oshib bordi; E-commerce to'lovlari 2025-yilda umumiy bozordan 20% ulush oldi.

Bozordagi raqobat muhiti va diversifikatsiya. Bozorning rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1) Innovatsion platformalar ko'payishi. Click, Payme, Humans Pay va OSON kabi kompaniyalar bozorga yangi xizmatlar olib kirdi.

2) Narx va komissiya siyosatidagi raqobat. 0% komissiya bilan xizmat ko'rsatish modeli foydalanuvchilar oqimini oshirdi.

3) Ekotizimga aylanish jarayoni. Har bir yirik kompaniya o'z ekotizimini shakllantirdi: mobil operatorlar bilan integratsiya; transport tizimlari; mikroqarz xizmatlari; elektron hamyonlar va kashback tizimlari.

4) Raqamlashtirish siyosati. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi islohotlar (masalan, PQ-359) bozor rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Ilmiy tahlil natijasida quyidagi xulosalar shakllandi: to'lov xizmatlari bozorida barqaror raqobat muhitining shakllanishi innovatsiyalar sonini oshirdi; aholi orasida naqd pulsiz to'lovlar ulushi sezilarli oshdi.

Bozor 2024–2025-yillarda to'yinganlik bosqichiga yaqinlashmoqda, ammo sifatli raqobat davom etmoqda.

Moliyaviy texnologiya xizmatlari iqtisodiyotda tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, pul aylanishini tezlashtirdi.

O'zbekiston to'lov tizimlarining 1991–2025-yillar davomidagi taraqqiyoti nafaqat texnik modernizatsiya, balki iqtisodiy, institutsional va innovatsion jarayonlarning uzviy rivoji bilan izohlanadi. Mazkur bo'limda to'lov tizimlarining shakllanishiga ta'sir etgan omillar, bozor dinamikasi, raqamlashtirish samaradorligi, moliyaviy texnologiya ekotizimining iqtisodiy ahamiyati va PQ-359 qarorining ilmiy bahosi kompleks tahlil qilinadi.

To'lov tizimlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilar:

1) Iqtisodiy omillar. To'lov tizimi iqtisodiyotda pul aylanishining tezligi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan makroiqtisodiy liberallashtirish jarayonlari: naqd pulsiz to'lovlar ulushining oshishi, savdo aylanmasining kengayishi, tranzaksiya xarajatlarining kamayishi, bank tizimidan foydalanishning qulaylashuvi kabi omillar orqali to'lov servislariga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi.

2) Texnologik omillar. Bank kartalari, mobil ilovalar, QR-kodlar, tezkor to'lovlar tizimi (T2T) kabi texnologiyalar to'lov amaliyotlarining ichki strukturasi tubdan o'zgartirdi. Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi: real vaqt rejimidagi to'lovlarni, masofaviy identifikatsiya va autentifikatsiya, xavfsizlikning yangi protokollarini amaliy qo'llash imkonini berdi.

3) Institutsional omillar. O'zbekiston Respublikasining 2019-yildagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RBQ-578-son'li Qonun moliyaviy texnologiya sektorini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'ldi. Unga ko'ra: to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari, elektron pul operatorlari rasman moliyaviy bozor subyekti sifatida tan olindi.

4) Ijtimoiy omillar. Aholi orasida mobil internetdan foydalanish darajasining oshishi, onlayn savdo ulushining kengayishi, yoshlar orasida moliyaviy texnologiya xizmatlarining ommalashuvi raqamli to'lovlarga talabni kuchaytirdi.

Bozor ko'rsatkichlari asosida ilmiy tahlili. 2020–2025-yillar davomida to'lov bozoridagi eng asosiy indikatorlar quyidagicha shakllandi:

1) To'lov tashkilotlari soni. 2020-yildagi 6 tadan 2025-yilda 44 taga yetishi — 7.3 baravar o'sish demakdir. Bu ishonchli raqobat muhitining shakllanishiga asos yaratdi.

2) Tranzaksiyalar soni va hajmi. Moliyaviy texnologiya sektoridagi tashkilotlar ulushining o'sishi bilan birga: elektron tranzaksiyalar soni 2020–2025-yillarda taxminan 3 baravar, QR-to'lovlar hajmi esa 10 baravar o'sdi.

3) Naqd pulsiz to'lovlar ulushi. 2016-yilda ko'rsatgich 21–23% bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 55%dan oshdi. Bu iqtisodiyotda tovar–pul muomalasi tezlashganini ko'rsatadi.

4) Raqobat koeffitsiyenti. Bozorda 5 ta yirik operator 70% ulushni egallagan bo'lsada, qolgan 30% segment innovatsion kichik kompaniyalar tomonidan band qilingan. Bu raqobatni barqaror saqlaydi.

Raqamli to'lovlar samaradorligi bo'yicha ilmiy asoslari. To'lov tizimlarining samaradorligi iqtisodiyotda quyidagi ilmiy mezonlar orqali baholanadi:

1) Tranzaksiya xarajatlarining kamayishi (Transaction Cost Theory) va elektron to'lovlar: vaqt sarfini minimallashtiradi; operatsion xarajatlarni kamaytiradi; vositachilar sonini qisqartiradi.

O'zbekiston misolida T2T joriy etilishi bilan tranzaksiya vaqti sekundlarga tushdi, bu iqtisodiy operatsiyalarning su'ratini sezilarli oshirdi.

2) Pul aylanish tezligining oshishi (Velocity of Money). Real vaqt tizimlari joriy etilganidan so'ng o'rtacha pul aylanish tezligi 12–15% balandladi. Bu YAIMga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3) Moliyaviy inkluziyaning oshishi. Elektron hamyonlar va mobil to'lovlar orqali: bank xizmati nigohida bo'lmagan aholi qatlamlari ham moliyaviy tizimga qo'shildi; mikrotranzaksiyalar hajmi 5 baravar kengaydi.

4) Makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir. Raqamli to'lovlarning ommalashishi: "soya iqtisodi" ulushini kamaytiradi; fiskal tushumlarni oshiradi; budjet intizomini kuchaytiradi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-4575786>



Moliyaviy texnologiya ekotizimining ilmiy modeli. O'zbekiston moliyaviy texnologiya bozorining shakllanishi uchta asosiy ilmiy konsepsiya bilan izohlanadi:

1) Platform Economy nazariyasi. Click, Payme, OSON, Humans singari platformalar bir nechta xizmatlarni birlashtirib, ko'p tomonlama integratsiya yaratadi.

2) Network Effect (Tarmoq ta'siri). Qancha ko'p foydalanuvchi shuncha ko'p qiymat. 2025-yilda 20 mln+ aktiv moliyaviy texnologiya foydalanuvchisi bo'lishi narh tushishi va sifat oshishiga olib keldi.

3) Innovatsion Diffuziya modeli. Moliyaviy texnologiya texnologiyalari (QR, T2T, elektron hamyonlar) aholiga jadal tarqalish modeli orqali kirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-359-sonli qarorining ilmiy tahlili (2025–2030). Ushbu qaror to'lov tizimining yangi paradigmasini yaratadi.

Shuningdek, fuyidagi: Open Banking — tizimlararo ma'lumot almashinuvi samaradorligini oshiradi; CBDC — milliy valyuta emissiyasi va naqd pul muomalasini optimallashtiradi; Barqaror tokenlar — xalqaro to'lovlar tezligini oshiradi; Universal QR — tranzaksiyalarni standartlashtiradi; Regtech — risklarni avtomatlashtirilgan nazorat qilish imkonini beradi.

Bu islohotlar 2026–2030-yillarda O'zbekistonni Markaziy Osiyoda moliyaviy texnologiya hubiga aylantirishi mumkin. To'lov tizimlarining 1991–2025-yillarda tashkil topgan rivojlanish modeli O'zbekiston iqtisodiyotida: raqamli xizmatlar ulushini oshirdi; tranzaksiya xarajatlarini qisqartirdi; moliyaviy inklyuziyani kengaytirdi; moliyaviy texnologiya ekotizimini barpo etdi; raqobatga asoslangan barqaror bozorni shakllantirdi.

Shu bois, to'lov tizimining ilmiy-amaliy rivoji iqtisodiyot barqarorligining muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston to'lov tizimlarining 1991–2025-yillar davomida bosqichma-bosqich shakllanishi, bozorning jadal rivojlanishi va moliyaviy texnologiya xizmatlarining kengayishi natijasida milliy moliya tizimida sezilarli sifat o'zgarishlari yuz berdi. Avvalo, to'lov tizimlarini rivojlanish bosqichlarida bugungi raqamli infratuzilmaning shakllanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. 1990-yillar oxiridagi kliring tizimining markazlashtirilishi, 2000-yillardagi protsessing markazlarining tashkil etilishi va 2019-yildan keyingi innovatsion xizmatlarning paydo bo'lishi o'zaro bog'liq holda to'lov tizimining evolyutsion takomiliga zamin yaratdi.

Bozor tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillarda to'lov xizmatlari bozoriga 44 ta yangi tashkilotning kirib kelishi raqobatning kuchayishiga, xizmatlar diversifikatsiyasiga va narxlarning pasayishiga olib keldi. Yirik operatorlar tomonidan ekotizim yaratish jarayoni (mobil aloqa, transport, e-commerce va moliyaviy xizmatlar bilan integratsiya) bozorning kengayishida asosiy drayverga aylandi. Shu bilan birga, bozorning to'yinganlik bosqichiga yaqinlashayotgani 2024–2025-yillarda xizmatlar sifati, xavfsizlik mexanizmlari va texnologik ustunlik orqali raqobatni shakllantirganini ko'rsatadi.

Olib borilgan ilmiy tahlillar to'lov tizimini iqtisodiyotga ko'rsatgan ta'sirini chuqur namoyon etdi. Tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi, pul aylanish tezligining oshishi va moliyaviy inklyuziyaning kengayishi O'zbekiston iqtisodiyotida integratsiyalashgan raqamli infratuzilmaning shakllanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, real vaqt tizimlarining (T2T) joriy etilishi operatsion samaradorlikni keskin oshirgan bo'lsa, QR-to'lovlarning ommalashuvi kunlik mikrotranzaksiyalar hajmini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu holat Raqamli Iqtisodiyot nazariyasida qayd etilgan «transaction speed effect» bilan to'liq mos keladi.

Shuningdek, moliyaviy texnologiya ekotizimining shakllanishi tarmoq ta'siri (network effect) asosida tezlashgan tarzda kechdi. Aholi sonining katta qismi mobil internetdan faol foydalanishi va moliyaviy texnologiya ilovalarning ommalashuvi jamiyatda raqamli to'lovlarga bo'lgan madaniy tayyorgarlikni kuchaytirdi. Natijada, elektron to'lovlar bozori nafaqat xizmatlar ko'lami, balki aholi o'rtasida foydalanish darajasi bo'yicha ham kengaydi. Bu holat, o'z navbatida, moliya sektorining shaffofligi, budjet tushumlarining oshishi va "soya iqtisodi" ulushining qisqarishiga ijobiy ta'sir etdi.

Muhokama jarayonining yana bir muhim jihati shuki, 2025-yilda qabul qilingan PQ-359-son Prezident qarori to'lov tizimining kelgusi strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlab berdi. Open Banking tizimi joriy etilishi orqali banklar o'rtasida ma'lumot almashinuvi samaradorligi oshadi, moliyaviy texnologiya startaplar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi va raqobat yanada kuchayadi. CBDC (Markaziy bank raqamli valyutasi) va barqaror tokenlar konsepsiyasini esa naqd pul muomalasini optimallashtiradi, transchegaraviy to'lovlarni arzonlashtiradi va monetar siyosatning yangi mexanizmlarini joriy etishga zamin yaratadi.

Shunday bo'lsada, rivojlanish jarayonida bir qator muammo va chaqiriqlar ham mavjud:

- xavfsizlikning yuqori darajada ta'minlanishi;
- kiberhujumlarga qarshi barqaror infratuzilma;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy talablar;
- moliyaviy texnologiya xizmatlarining haddan ziyod konsentratsiyalashuvi;
- nazorat va tartibga solishning moslashuvchan mexanizmlari.

Mazkur muammolar yechimini topish uchun davlat, banklar va moliyaviy texnologiya kompaniyalari o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni kuchaytirish zarur.



Umuman olganda, to'lov tizimlarining tarixiy rivojlanishi, bozor dinamikasi va ilmiy tahlilni olib borilgan ushbu tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekistonning to'lov ekotizimi 2020–2025-yillarda o'zining eng jadal rivojlangan davrini boshdan kechirdi va 2026–2030-yillarda yanada yuqori texnologik bosqichga o'tish uchun zarur bazaga ega bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning to'lov tizimlari 1991–2025-yillar davomida bosqichma-bosqich shakllanib, evolyutsion rivojlanishning bir necha muhim pallalarini bosib o'tdi. Dastlabki yillarda qog'oz hujjatlarga asoslangan sust va sekin tizimdan boshlangan jarayon, 2000-yillardan boshlab bank kartalari infratuzilmasining kengayishi, hamda 2019-yildan keyingi raqamli transformatsiya natijasida bugungi kunda yuqori tezlikda ishlaydigan, xavfsiz, raqobatbardosh va keng qamrovli to'lov ekotizimiga aylandi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan tarixiy, bozor va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, to'lov tizimining rivojlanishi nafaqat texnologik yangilanish, balki iqtisodiyotning umumiy transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. 1995–1997-yillardagi markazlashgan kliring tizimining joriy etilishi, 2002–2019-yillarda Uzcard va Humo kabi milliy protsessing markazlarining shakllanishi, 2019-yildan keyingi moliyaviy texnologiya xizmatlarining ommalashuvi O'zbekiston moliya sektorining raqamli infratuzilmasini butunlay yangiladi. Ayniqsa, 2020–2025-yillarda to'lov tashkilotlari sonining 7 baravar ortishi va QR-to'lovlar, T2T tizimi, elektron hamyonlar kabi yechimlarning keng ommalashuvi bozorning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tganidan dalolat beradi.

Bozor tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy texnologiya sektorining o'sishi aholi va tadbirkorlar uchun qulayliklarni oshirdi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirdi, moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabni ko'paytirdi va iqtisodiyotdagi pul aylanish tezligini oshirdi. Bu esa o'z navbatida fiskal tushumlarning ortishiga, rasmiy iqtisodiyot ulushining kengayishiga va "soya iqtisodi"ning qisqarishiga sabab bo'ldi. To'lov tizimlarining raqobat muhiti ham barqarorlashib, yirik operatorlar bilan bir qatorda innovatsion kichik kompaniyalar ham bozorga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ilmiy tahlil shuni tasdiqlaydiki, real vaqt to'lov tizimlari, kriptografik himoya, raqamli autentifikatsiya va mobil to'lovlar infratuzilmasining jadal rivoji to'lov tizimining samaradorligi va xavfsizligini keskin oshirdi. Platform Economy va Network Effect nazariyalari O'zbekiston moliyaviy texnologiya ekotizimida to'liq namoyon bo'ldi: qancha ko'p foydalanuvchi — shuncha ko'p qiymat, shuncha ko'p innovatsiya. Bu model raqamli iqtisodiyotning milliy darajada shakllanishiga xizmat qilmoqda.

PQ-359-son qarori esa to'lov tizimlari rivojlanishining kelgusi bosqichini belgilab, 2026–2030-yillar uchun aniq strategik yo'nalishlarni ko'rsatib berdi. Open Banking, CBDC, barqaror tokenlar, regtech va universal QR kabi yo'nalishlar mamlakatning global moliyaviy texnologiya bozoriga integratsiyasini kuchaytiradi va moliya sektorining shaffofligi, xavfsizligi hamda samaradorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston to'lov tizimi bugungi kunda nafaqat ichki ehtiyojlarni qondiruvchi, balki xalqaro standartlarga yaqinlashayotgan, innovatsion imkoniyatlarga ega bo'lgan raqamli moliya ekotizimiga aylangan. 1991–2025-yillarda erishilgan natijalar mamlakatning raqamli iqtisodiyoti uchun mustahkam poydevor yaratdi va kelgusi yillarda bu yo'nalish yanada chuqur islohotlar va texnologik yangiliklar bilan boyib borishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 01.11.2019-yil kuni qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-sonli Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-4575786>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2025-yil "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-359-sonli qarori <https://lex.uz/uz/docs/-7864242>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "To'lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalari bo'yicha yillik hisobotlar" (2020–2025). – www.cbu.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "To'lov tashkilotlariga berilgan litsenziyalar ro'yxati". – rasmiy ma'lumotnoma, 2025.
5. A. Ergashev. "O'zbekistonda raqamli to'lovlar infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanish omillari". – TDIU Ilmiy jurnali, 2023.
6. Karimov A., Shodmonov S. "Moliyaviy texnologiya xizmatlarining iqtisodiyotga ta'siri: nazariy va amaliy tahlil". – "Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar" jurnali, 2022.
7. Qodirov B. "Elektron to'lovlar tizimining xavfsizligi va zamonaviy yondashuvlar". – Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti nashri, 2021.
8. Abdullayev, A. J. Raqamli iqtisodiyot: darslik / A. J. Abdullayev. – Toshkent: Universitet, 2020. – 344 b. – URL: <https://library.tsue.uz/books/raqamli-iqtisodiyot-darslik> (murojaat sanasi: 03.04.2026).
9. Berdiyeva, O. S. O'zbekistonda chakana to'lovlar bozorini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyalashuv: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati / O. S. Berdiyeva. – Toshkent: TMI, 2021. – 52 b. – URL: <http://library.tfi.uz/e-library/dissertatsiyalar>.



10. Vaxabov, A. V. Raqamli iqtisodiyot: darslik / A. V. Vaxabov, A. T. Xajiyev [va boshq.]. – Toshkent: Universitet, 2021. – 412 b. – DOI: [10.5281/zenodo.1042452](https://doi.org/10.5281/zenodo.1042452) (shartli). – URL: https://scholar.google.com/citations?user=Vaxabov_AV.
11. Kurpayanidi, K. A. Issues of institutional transformation of the ecosystem of the digital economy of Uzbekistan / K. A. Kurpayanidi // ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – Vol. 89, Issue 09. – P. 464-469. – DOI: [10.15863/TAS.2020.09.89.65](https://doi.org/10.15863/TAS.2020.09.89.65).
12. World Bank. «Digital Financial Services: Global Overview and Recommendations». – Washington, 2021.
13. International Monetary Fund (IMF). «Moliyaviy texnologiya and the Changing Financial Landscape». – IMF Working Paper, 2020.
14. OECD. «Open Banking and Digital Payments Integration». – OECD Report, 2022.
15. BIS (Bank for International Settlements). «Payment and settlement systems in the digital era». – BIS Papers, 2023.
16. Rogers, E. «Diffusion of Innovations». – New York: Free Press, 2003.
17. Mishkin, F. «The Economics of Money, Banking and Financial Markets». – Pearson, 2020.
18. Shavkatov D. «Raqamli iqtisodiyot sharoitida to'lov tizimlari transformatsiyasi». – «Moliyaviy tahlil» jurnali, 2024.
19. Uralov M. «Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC): nazariya va amaliyot». – TDIU elektron jurnali, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
